

**ZOMIN DAVLAT QO‘RIQXONASINING TABIIY-GEOGRAFIK
SHAROITLARI VA YER RESURLARI HOLATI.****H.X.Tashbayeva** - q.x.f.f.d

(PhD), “O‘zdavyerloyiha” davlat
ilmiy - loyihalash instituti doktoranti.

tashbayeva93@bk.ru

[0009-0009-5065-2350]

**M.M.Jabborov** -

“O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy -
loyihalash instituti tayanch doktoranti.

mansurbekjabborov407@gmail.com

[0009-0009-7882-8899]

***Annotasiya.** Maqolada Zomin davlat qo‘riqxonasining tabiiy-geografik sharoitlari va yer resurslari holati keltirilgan. Shuningdek, hududning relyefi, iqlimi, tuproq turlari, o‘simlik qoplamasi va antropogen omillar tahlil etilgan. O‘z navbatida, yer resurslarining hozirgi holati, ularning ekologik ahamiyati va boshqaruvdagi muammolar ham ko‘rib chiqiladi. Maqola Zomin hududidagi tabiiy sharoitlarning resurslarni boshqarish va muhofaza qilishdagi rolini aniqlashga yordam beradi hamda ekologik barqarorlikni ta‘minlash uchun tavsiyalar beradi.*

***Kalit so‘zlar:** yer, tuproq, yer resurslari, o‘rmon qoplamasi, tabiiy-geografik sharoit, tabiat, Zomin davlat qo‘riqxonasi, tog‘- o‘rmon, iqlim, relyef.*



**ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И СОСТОЯНИЕ
ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЗАПОВЕДНИКА
ЗОМИН.**

Аннотация. В статье представлены естественно-географические условия и состояние земельных ресурсов Государственного заповедника Зомин. Кроме того, проведён анализ рельефа территории, климата, типов почв, растительного покрова и антропогенных факторов. Рассмотрено текущее состояние земельных ресурсов, их экологическое значение и проблемы управления ими. Статья способствует определению роли природных условий Зомина в управлении и охране ресурсов, а также предоставляет рекомендации для обеспечения экологической устойчивости.

Ключевые слова: земля, почва, земельные ресурсы, лесной покров, естественно-географические условия, природа, Государственный заповедник Зомин, горно-лесная местность, климат, рельеф..

**NATURAL AND GEOGRAPHICAL CONDITIONS AND THE
STATE OF LAND RESOURCES OF ZOMIN STATE NATURE
RESERVE.**

Abstract. The article presents the natural-geographical conditions and the state of land resources of the Zomin State Nature Reserve. It also analyzes the terrain, climate, soil types, vegetation cover, and anthropogenic factors of the area. The current state of land resources, their ecological significance, and management challenges are examined. The article helps to determine the role of Zomin's natural conditions in resource management and conservation, and provides recommendations for ensuring ecological sustainability.

Key words: land, soil, land resources, forest cover, natural-geographical conditions, nature, Zomin State Nature Reserve, mountain-forest area, climate, relief.

Kirish. Zomin davlat qo‘riqxonasi O‘zbekistonning tog‘li hududlarida joylashgan bo‘lib, tabiiy boyliklar va biologik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu hududning tabiiy-geografik sharoitlari – iqlim, relyef, tuproq va suv resurslari – qo‘riqxonadagi ekotizimlarning shakllanishi va ularning barqarorligida muhim rol o‘ynaydi. Yer resurslari esa nafaqat o‘simlik va hayvonot dunyosi uchun muhim, balki hududning ekologik muhofazasi va barqaror rivojlanishi uchun ham asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli qo‘riqxonadagi tabiiy-geografik sharoitlar va yer resurslari holatini o‘rganish ekologik tadqiqotlar va resurslarni samarali boshqarish bo‘yicha muhim ma‘lumotlar beradi. “Zomin davlat qo‘riqxonasi” Jizzax viloyatining Baxmal va Zomin tumanlari hududida joylashgan bo‘lib, Baxmal o‘rmon xo‘jaligi, “Baxmal” fermerlar uyushmasi, Zomin o‘rmon xo‘jaligi, “Zomin milliy tabiat bog‘i” qo‘shni Tojikiston Respublikasi davlat chegarasi bilan chegaradosh. Qo‘riqxonaning umumiy maydoni 26 ming 840 gektarni bufer zonasi esa 3516 gektarni tashkil etadi. Chegaradosh hududlardagi qo‘riqxonaga chegarasida 1,5-2 kilometr gacha masofada 8 ming 770 gektar qo‘riqlash maydoni mavjud. 1 ming 500 dan 2 ming 500 yoshgacha bo‘lgan noyob tabiiy archazorlarni va archazorlardagi hayvonot hamda o‘simlik dunyosini asrash maqsadida 1928 yil Turkiston tog‘ tizmasida “Zomin tog‘ archazorlari” Davlat qo‘riqxonasi tashkil etilgan. Mazkur qo‘riqxonaga hududidagi vuqorli tog‘lar dengiz sathidan 1 ming 700 metrdan 4 ming 29 metrgacha balandlikka ega uch zonani – tog‘larning pastki, o‘rta va yuqori qismlarini o‘z ichiga oladi. Qo‘riqxonaga yerlari tarkibiga asosan tog‘ tizimlari kirib, hududning janubiy qismi Turkiston tog‘ tizmasining tik jarliklaridan, shimoliy qismi esa biroz tekisroq rel’efli supalardan iborat bo‘lib, Zomin davlat qo‘riqxonasidagi umumiy aylanmalar soni 16 tani, shundan Zomin bo‘limida 9 ta, Baxmal bo‘limida 7 ta aylanma mavjudligi qayd etildi. Qo‘riqxonaning Baxmal bo‘limi o‘ziga xos biologik xilma-xillikka ega bo‘lib, o‘simliklar va hayvonot

dunyasini muhofaza qilish maqsadida bu yerda muntazam ravishda nazorat ishlari olib boriladi.(1-rasm)[4]



1-rasm. Zomin davlat qo‘riqxonasi florasi

Iqlimi. Har bir hududning iqlimi boshqa joylardagi iqlimga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Zomin tumani iqlimi yer yuzasining tuzilishi, geografik o‘rni, shimol va g‘arbdan esuvchi havo massalari, janubda tog‘ tizmalarining mavjudligi bilan belgilanadi. Mintaqa iqlimi keskin kontinentalligi va quruqligi bilan ajralib turadi. Qishda Sibir va Arktika sovuq havo massalarining to‘siqsiz kirib kelish imkoni mavjud. Ular qisman tuman janubidagi tog‘lardan o‘tolmasdan shu hududda to‘planib qoladi. Natijada qishda havo harorati pasayadi va eng sovuq oy hisoblangan yanvarda tuman hududining deyarli hamma joyida harorat manfiy ko‘rsatkichga ega bo‘ladi. Lekin, Zomin tumani asosan tog‘li hudud bo‘lganligi sababli qishi sovuq yozi qolgan hududlarga nisbatan issiq bo‘ladi.

Zomin tumanining shimoliy, markaziy va sharqiy qismi pasttekislik, janubiy - g‘arbiy qir-adir va tog‘lardan iborat. Yer yuzasi shimoldan janubga tomon ko‘tarilib boradi. Iqlimi keskin kontinental, yozi issiq, quruq, qishi bir

oz sovuq. Yanvarning oʻrtacha harorati — $1,5^{\circ}\text{C}$, iyulniki 32°C . Yillik yogʻin miqdori 350-360 mm boʻlib, vegetatsiya davri 240 kunni tashkil etadi. Zomin tumanida Oʻzbekistondagi togʻli hududlarida eng birinchi qor yogʻdigan hududlaridan biri hisoblanadi. Tuman hududi okean va dengizlardan ancha olisda joylashganligi sababli, havo harorati yil fasllari davomida bir-biridan keskin farq qiladi. Yoz va qish fasllari nisbatan uzun boʻlganligi sababli, bahor va kuz fasllari qisqaroq keladi. Tumanning janubiy qismdagi togʻlar va ularning yonbagʻirlarida iqlim tekisliklarga nisbatan salqin va biroz sernam. Tuman hududining shimoldan janubga, gʻarbdan sharqqa uzoq masofaga choʻzilmaganligi, yaxlitligi va subtropik kengliklarga yaqin joylashganligi, harorat rejimining oʻziga xosligini taʼminlaydi.[1]

Ichki suvlari. Zomin tumani hududida gidrografik tarmoq nihoyatda notekis taqsimlangan. Tekislik hududlarida deyarli daryolar va soylar yoʻq. Aksincha, togʻli hududlarda yogʻingarchilik koʻp boʻlganligi sababli daryo tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Mavjud daryo va soylarning suv miqdori, rejimi va tarmoqlanishi geografik sharoitga ham bogʻliqdir. Tumaning yirik suv manbai Zominsuv daryosi hisoblanadi. U Turkiston togʻlarining yuqori qismida Qashqasuv, Koʻlsuv va Qizilmazor soylarining qoʻshilishidan hosil boʻladi. Uzunligi 41 km, suv yigʻish maydoni 709 kv. km., oʻrtacha koʻp yillik suv sarfi 2,0 metr kub sekund, daryo mavsumiy qor va yomgʻirlardan toʻyinadi, martiyun oylarida sersuvdir. Daryo suvi Zomin shahridan oʻtib tekislikka chiqqandan keyin sugʻorish uchun foydalaniladi. Molguzar togʻ tizmasidagi qor va yomgʻir suvlaridan toʻyinadi, bahorda sersuv boʻlib, tekisliklarga chiqishi bilan sugʻorishga foydalaniladigan Ravotsoy, Pishagʻarsoy, Jaloirsoy, Turkmansoy kabi soylar mavjud. Ularning oʻrtacha yillik suv sarfi 0,17-0,60 metr kub sekundga teng.(2-rasm)[8]



2-rasm. Zomin suv ombori

Tuproqlari. Togʻli hududlarning dengiz sathidan 1500 - 1800 m gacha boʻlgan joylarida toʻq tusli boʻz tuproq, jigar rang va oʻrmon qoʻngʻir tuproqlari tarqalgan. Bunday tuproqlarni Zomin togʻlari, Molguzar va Chumqortogʻ tizmalarining shimoliy yonbagʻrida uchratish mumkin. 2000 - 2600 m dan baland boʻlgan Zomin togʻi va Chumqortogʻning suvayirgʻich qismlarida asosan och qoʻngʻir tuproqlari mavjud, ularda koʻpincha tuproq hosil qiluvchi jinslar qatlami koʻrinib turadi. Tuproq qatlamining yupqaligini iqlimning keskinligi va vegetasiya davrining qisqa ekanligi bilan izohlash mumkin. Togʻli hududlarning eng baland qismlarida (3000 m.dan yuqorida) och tusli qoʻngʻir tuproqlar tarqalgan. Och tusli qoʻngʻirtuproq tarqalgan joylar togʻlarning eng baland qismlarida joylashganligi uchun tuproq uncha qalin emas, chunki skeletli delyuvial jinslar negizida vujudga kelgan, binobarin, tuproq mintaqa boʻyicha yoppasiga tutashib joylashgan emas. Relifi qulay, nam, oʻsimliklar qalin oʻsgan togʻlarning shimoli-gʻarbiy yonbagʻirlarida bu tuproq turi nisbatan keng tarqalgan boʻlib, tarkibida gumus miqdori 5- 7% gacha, gumus saqlovchi qatlam esa 30-60 sm etadi. Aksincha, togʻlarning quyoshga qaragan janubiy yonbagʻirlarida tuproq yaxshi rivojlanmasdan koʻp joylarida tub ona jinslar er betiga chiqib, qoyalar ochilib,

ko'p qismini shag'al va qurumlar ishgor qilgan. Bunday joylardagi mavjud bo'lgan och tusli qo'ng'ir tuproqlar qatlami yupqa, tarkibida chirindi miqdori kam bo'lib 2-3 % ni tashkil etadi.[2]

O'simliklari. Zomin davlat qo'riqxonasida o'simliklarning 700 dan ziyod, kam uchraydigan yovvoyi hayvonlarning esa 150 turi mavjud. Zomin o'rmon xo'jaligida archa, bodom, pista, tog' teragi kabi daraxtlar ko'chatlari parvarishlanib, mamlakatimizning boshqa hududlariga etkazib berilmoqda. Tog'lar tabiiy sharoitidagi tafovut, uning o'simlik qoplaminin joylashishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Tog' balandlik mintaqasining yuqori qismida daraxtlar va butalar keng tarqalgan, ular orasida archazorlar katta maydonlarni egallaydi. Zomintog', Chumqortog' va Molguzar tog'ining shimoliy yonbag'rlarida archazorlar mavjud. Tog' o'tloq mintaqasi tumandagi balandligi 2700 metrdan balandroq, ammo uncha katta bo'lmagan hududlarni o'z ichiga oladi. Bu mintaqada subalp o'tloqlari mavjud va ular tog' o'rmon-dasht balandlik mintaqasi o'tloqlaridan bo'yi bir muncha pastligi bilan farq qiladi. Subalp o'tloqlari Zomintog', Chumqortog' va Molguzar tog'ining tuproq qatlami nisbatan yaxshi rivojlangan, sernam joylarida vujudga kelgan, ular orasida qo'ng'irbosh, mushukquyruq, toron, yovvoyi arpa, chayir, shuvoq, betaga kabi o'simliklar keng tarqalgan. O'tloqlardan yozgi yaylov sifatida foydalaniladi.[1]

Hayvonot olami. Zomin davlat qo'riqxonasi hayvonot dunyosi mahalliy landshaft sharoitiga moslashgan. Dengiz sathidan 1200-2500 m balandda joylashgan tog' o'rmondashtlari mintaqasida sudralib yuruvchilardan turkiston agamasi, himolay agamasi, cho'l kaltakesagi, ko'lborilon, qalqontumshuq ilon va boshqalarni uchratish mumkin. Qushlardan - sariq chumchuq, dumparast, chittak, potmachumchuq, qizilishton, moyqutlar, zarg'aldoq ko'proq uchraydi. Jarqanotlar, pishchuxalar, tezoqar soylar yonida esa suvchumchuqlar uchrab qoladi, cho'qqilar va daralar tepasida yirtqich qushlardan tasqara bilan

boltayutar parvoz qilib yuradi. Tog' o'tloq balandlik mintaqasidagi o'ziga xos iqlim va relyef xususiyatlari ba'zi hayvon turlarining tarqalishini cheklaydi, masalan, sudralib yuruvchilar kam. Shunga qaramasdan bu mintaqa faunasi boshqa mintaqalarga nisbatan boyroq, bunga mavjud landshaft va ozuqa ko'pligi sabab bo'lgan. Bo'ri, o'rmon quyoni, jayra, tulki, to'ng'iz, ayiq, silovsin sut emizuvchilarning tipik namoyandalari sifatida uchraydi. Qushlarning 90 dan ko'proq turi mavjud bo'lib kaklik, burgut, tasqara, zarg'aldoq, tog' chumchug'i, qumri, boltatumshuq shular jumlasidandir. Qo'riqxonada baliqning 1 turi, amfibiyalarning 2 turi, sudralib yuruvchilarning 14 turi, qushlarning 102 turi, sut emizuvchilarning 30 turi mavjud. Xalqaro va O'zbekiston "Qizil kitob" lariga kiritilgan qor qoploni, Tyan-Shan qo'ng'ir ayig'i, Turkiston silovsini, Seversov qo'yi, bo'ri, tulki, yovoyi to'ng'iz, qora grif, qora laylak, soqolli kalxat, burgut, pakana burgut, oqboshli kalxat, tasqara, lochin va qizilboshli lochin kabi hayvon va qushlar, bulardan tashqari, to'ng'iz, jayra, quyon kabi hayvonlar hamda qarg'a, olashaqshaq va boshqa ko'plab chumchuqsimon qushlar bor.[7]

Xulosa qilib aytganda, Zomin davlat qo'riqxonasi juda muhim muhofaza etiladigan hududlar sirasiga kiradi. Qo'riqxonada bizga kamayib va yo'qolib borayotgan turlarni u hayvon bo'lsin yoki o'simliklarni saqlab qolishga yordam beradi. Zomin davlat qo'riqxonasi ko'plab turlarni saqlab kelmoqda. Shunday ekan Zomin davlat qo'riqxonasining hayvonot dunyosi va o'simliklarini asrab avaylab kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. F. Musurmonqulov. Zomin tuman geografiyasi (risola)

2. F.Musurmonqulov. Zomin milliy bog‘ining tabiiy geografik xususiyatlari (uslubiy qo‘llanma)
3. <https://cyberleninka.ru/>
4. <https://gov.uz/>
5. <https://uza.uz/>
6. B.V.Saipova. Muhofaza etiladigan hududlar yerlarini boshqarish / Monografiya. – T.: “TIQXMMI” MTU, 2025. – 93 bet.
7. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. Zomin davlat qo‘riqxonasi haqida rasmiy ma’lumotlar. – Toshkent, 2023.
8. To‘raev X.T., Yo‘ldashev M.M. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.

